MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII .....	1210
<b>To'rayeva Nafisa Odiljonovna</b>	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
<b>Astanayev Kulmaxammat Sanayevich</b>	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....	1221
<b>Jalolov Abbasxon Ravshaxon o'g'li</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
<b>Ashurov Furkatjon Shuxratovich</b>	
NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI .....	1233
<b>Sabirov Mirza Qilichbayevich</b>	
Zararli dasturiiy ta'minotni aniqlash va tahlil qilishda neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari.....	1238
<b>Nuratdinov Xushnid Begzadovich, Erejepov Kewlimjay Kaymatdinovich</b>	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINING ZAMONAVIIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	1244
<b>No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT METODOLOGIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI TAMOIYILLAR VA YONDASHUVLAR.....	1250
<b>Saitmuratov Saitmuarat Masharip o'g'li</b>	
ASINXRON MOTORLARNING NOSIMMETRIK REJIMLARINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR METODIKASINI ISHLAB CHIQISH.....	1255
<b>Tojimurodov Dilshodbek Dilmurodjon o'g'li</b>	



SOLIQ ORGANLARI VA SOLIQ TO'LOVCHILAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI SUDGACHA HAL ETISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI .....	1263
<b>Solihova Xumora Xasan qizi</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	1269
<b>Ashurov Furkatjon Shuxratovich</b>	
TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARI MUVOFIQLIGI VA UNI BOSHQARISH .....	1274
<b>Saidov Doniyor Abdullayevich</b>	
AI-BASED AUTOMATED ASSESSMENT SYSTEMS AND THEIR ROLE IN EDUCATION QUALITY MONITORING: THE CASE OF UZBEKISTAN.....	1280
<b>Majidova Yulduz, Janayev Bunyod, Choriyev Anvar, Mamatqulov Mavlon</b>	
MAHALLIY BYUDJETLARDA SOLIQLARNI UNDIRISHNI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI .....	1286
<b>To'xсанov Qudratillo Nozimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI.....	1294
<b>Murtazayev Olim, Norbekov Fazliddin Iskandar o'g'li</b>	
SOLIQ NIZOLARINI MA'MURIY TARTIBDA KO'RIB CHIQISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1301
<b>Solihova Xumora Xasan qizi</b>	
KRIPTOAKTIVLAR VA MBRVNING MONETAR SIYOSAT TRANSMISSIYA MEXANIZMIGA TA'SIRI.....	1305
<b>R.I. Rashidov, S.B.Eshmurodova</b>	
"SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM" MODELINING SINERGETIK SAMARADORLIGI VA TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI INVESTITSİYALAR BILAN TA'MINLASHDAGI IMKONIYATLARI.....	1310
<b>Pardayeva Ozoda Mamayunusovna</b>	
KORPORATIV KONFLIKTLARNI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1318
<b>Xoliqova Saboxat Abdukarim qizi</b>	
LONDON XALQARO MOLIYA MARKAZINING RIVOJLANISH OMILLARI VA RAQOBAT USTUNLIKLARI .....	1325
<b>Alimardonov Elshod Dilshodovich</b>	



# LONDON XALQARO MOLIYA MARKAZINING RIVOJLANISH OMILLARI VA RAQOBAT USTUNLIKLARI

**Alimardonov Elshod Dilshodovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Xalqaro moliya” kafedrası professori, i.f.n.

E-mail: [alimardonoved@gmail.com](mailto:alimardonoved@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada London xalqaro moliya markazining tashkil etilishi va rivojlanishining asosiy omillari, shakllanish bosqichlari, huquqiy asoslari hamda institutsional tuzilmasi tahlil qilingan. Shuningdek, markazning ustun jihatlari, rivojlanish imkoniyatlari, investorlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar, soliq imtiyozlari, zamonaviy rivojlanish tendensiyalari hamda xalqaro moliyaviy bozordagi raqobat afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Magna Carta, “Big Bang” islohotlari, Brexit, investitsiyalar, innovatsiyalar, fintech, kapital bozorlari, barqaror moliya, Global moliyaviy markazlar indeksi (GFCI), sun'iy intellekt, pretsedent huquq tizimi (common law), global valyuta savdosi (FX turnover), xalqaro bank faoliyati (cross-border banking), aksiyadorlik kapitali, aksiyalarning birlamchi ommaviy joylashtirilishi (IPO), boshqaruv ostidagi aktivlar (AUM), prudensial nazorat, moliyaviy xulq-atvor nazorati.

Аннотация. В данной статье исследуются основные факторы формирования и развития Лондонского международного финансового центра, этапы его становления, правовые основы функционирования и институциональная структура. Особое внимание уделено анализу конкурентных преимуществ центра, перспектив развития, благоприятных условий для инвесторов, налоговых льгот, современных тенденций развития, а также его роли в укреплении позиций на мировом финансовом рынке.

Ключевые слова: Великая хартия вольностей (Magna Carta), реформы «Большого взрыва» (Big Bang Reforms), Брексит, инвестиции, инновации, финтех (финансовые технологии), рынки капитала, устойчивые финансы, Индекс глобальных финансовых центров (GFCI), искусственный интеллект, система прецедентного права (common law), глобальный валютный оборот (FX turnover), трансграничная банковская деятельность (cross-border banking), акционерный капитал, первичное публичное размещение акций (IPO), активы под управлением (AUM), пруденциальный надзор, надзор за поведением участников финансового рынка.

**Abstract.** This article examines the key factors behind the establishment and development of the London International Financial Centre, including its stages of evolution, legal foundations, and institutional structure. The study highlights the Centre's competitive strengths, development prospects, investor-friendly environment, tax incentives, contemporary development trends, and its role in maintaining a leading position in the global financial market.

**Keywords:** Magna Carta, Big Bang Reforms, Brexit, investments, innovations, FinTech, capital markets, sustainable finance, Global Financial Centres Index (GFCI), artificial intelligence, common law legal system, global foreign exchange turnover (FX turnover), cross-border banking, equity capital, initial public offering (IPO), assets under management (AUM), prudential supervision, financial conduct regulation.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni kengaytirish hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlari yirik hajmdagi investitsiyalarni jalb etishni talab etadi. Bu borada xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga keng jalb qilishda mamlakatdagi investitsiya muhiti, investorlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar va huquqiy kafolatlar alohida o'rin tutadi.

Investitsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirish, kapital bozorini rivojlantirish hamda ilg'or xalqaro standartlarni joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi “Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida”gi PF–48-son Farmoni<sup>1</sup> bilan Toshkent xalqaro moliya markazi (TXMM) tashkil etildi [1]. Mazkur Farmonga muvofiq, markaz hududida moliyaviy, investitsiyaviy va bank faoliyati, sug'urta xizmatlari, qimmatli qog'ozlar bozori, to'lov tizimlari, islomiy va yashil moliya, fintech, raqamli

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2026-yil 30-martdagi PF-48-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8103316>

(kripto) aktivlar, auditorlik, konsalting hamda yuridik xizmatlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Toshkent xalqaro moliya markazining samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, London xalqaro moliya markazining shakllanish omillari, rivojlanish bosqichlari, zamonaviy tendensiyalari va xalqaro raqobat ustunliklarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Borsa Istanbul Review” jurnalida chop etilgan Vo va Nguyenning “Determinants of a Global Financial Center: An Exploratory Analysis” nomli maqolasida global moliyaviy markazlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan [2]. Mualliflarning ta'kidlashicha, moliyaviy markazlarning muvaffaqiyati iqtisodiy barqarorlik, rivojlangan moliyaviy infratuzilma, samarali huquqiy tizim, xalqaro savdoga ochiqlik, texnologik rivojlanish va inson kapitali bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqot natijalari xalqaro moliyaviy markazlar investorlar uchun qulay institutsional muhit va innovatsion moliyaviy xizmatlar orqali global kapital oqimlarini samarali jalb qilishini ko'rsatadi.

“Economic Modelling” jurnalida chop etilgan Kim, Lin va Liuning “Financial Openness and Wealth Inequality: The Moderating Role of Financial Development” nomli maqolasida moliyaviy ochiqlik va boylik tengsizligi o'rtasidagi bog'liqlik hamda ushbu jarayonda moliyaviy rivojlanishning moderatsion roli tadqiq etilgan [3]. Mualliflar moliyaviy ochiqlik iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi bilan bir qatorda, moliyaviy tizimi yetarli darajada rivojlanmagan mamlakatlarda boylik tengsizligiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etadilar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlangan moliyaviy institutlar va samarali moliyaviy siyosat moliyaviy ochiqlikning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini muvozanatlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur xulosalar Toshkent xalqaro moliya markazini rivojlantirish jarayonida ham dolzarb bo'lib, moliyaviy bozorlarni liberallashtirish bilan birga inklyuziv moliyaviy tizimni shakllantirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

“Global Finance Journal” jurnalida chop etilgan Vo va Dalyning “The Determinants of International Financial Integration” nomli maqolasida xalqaro moliyaviy integratsiyaning asosiy determinantlari, jumladan iqtisodiy rivojlanish, savdo ochiqligi, institutsional muhit, moliyaviy rivojlanish va kapital harakati siyosati empirik jihatdan o'rganilgan [4]. Mualliflarning fikricha, xalqaro moliyaviy integratsiya samarali huquqiy tizim va rivojlangan moliyaviy infratuzilma bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu xulosalar moliyaviy markazlar raqobatbardoshligini oshirishda institutsional omillarning muhimligini tasdiqlaydi.

“Journal of International Financial Markets, Institutions and Money” jurnalida chop etilgan Degl'Innocenti va hammualliflarining “Bank Efficiency and Financial Centres: Does Geographical Location Matter?” nomli maqolasida banklar samaradorligi va moliyaviy markazlarga geografik yaqinlik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan [5]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, London va Nyu-York kabi yirik moliyaviy markazlarga yaqin joylashgan banklarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi yuqoriroq bo'lib, global moliyaviy inqiroz davrida ushbu omilning ahamiyati yanada ortgan. Mazkur natijalar Toshkent xalqaro moliya markazida bank tizimi samaradorligini oshirish, investitsiyalar oqimini kengaytirish hamda mamlakatning mintaqaviy moliyaviy integratsiyasini mustahkamlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati tomonidan e'lon qilingan “Moliya va raqamli texnologiyalar sohasidagi yangi tashabbuslar taqdimot qilindi” nomli materialda Toshkent xalqaro moliya markazi yangi turdagi investitsiyalarni jalb qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim vositalaridan biri sifatida baholangan [6]. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilgacha moliya markazi iqtisodiyotga qo'shimcha 20–25 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etishi, yalpi ichki mahsulot o'sishiga har yili qo'shimcha 1 foizgacha hissa qo'shishi, 15 mingtagacha yuqori malakali ish o'rni yaratishi hamda 10 ming nafardan ortiq mutaxassislarning malakasini oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni ilmiy o'rganish, tahlil qilish va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, statistik tahlil hamda ilmiy abstraksiya usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya usuli asosida London xalqaro moliya markazining rivojlanish omillari va raqobat ustunliklari yuzasidan nazariy xulosalar shakllantirildi. Tizimli va statistik tahlil usullari yordamida moliya markazining rivojlanish bosqichlari, o'ziga xos tendensiyalari hamda faoliyat samaradorligini belgilovchi omillar aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot davomida markazning raqobat afzalliklari, rivojlanish imkoniyatlari, istiqbolli yo'nalishlari hamda kelgusidagi taraqqiyot salohiyati kompleks baholandi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 1215-yilda Angliyada Magna Carta qabul qilinib, u shaxsiy huquq va erkinliklarning huquqiy kafolatlarini mustahkamladi hamda Londonning mahalliy va xorijiy savdogarlar uchun ishonchli savdo markazi sifatida rivojlanishiga zamin yaratdi. Aynan shu davrdan boshlab Londonning xalqaro moliya markazi sifatida shakllanish va rivojlanish jarayoni boshlandi. 1694-yilda Angliya bankining (Bank of England), shuningdek, qirollik birjasining rivojlanishi London moliya bozorining institutsional asoslarini mustahkamladi.

Merkantilistik savdo-iqtisodiy va moliyaviy siyosat, shuningdek, XVIII asrdagi sanoat inqilobi Londonning ikki asrdan ortiq vaqt davomida jahonning yetakchi moliyaviy markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qildi. Ushbu maqom Britaniya imperiyasining iqtisodiy qudrati va oltin standart tizimiga asoslangan bo'lib, funt sterling xalqaro valyuta tizimining asosiy tayanch valyutalaridan biri sifatida faoliyat yuritgan.

Londonning zamonaviy xalqaro moliya markazi sifatida shakllanishidagi muhim institutsional burilish 1986-yildagi "Big Bang" islohotlari hamda 1986-yilda qabul qilingan "Moliyaviy xizmatlar to'g'risida"gi Qonun (Financial Services Act) bilan bog'liqdir. "Bank of England" ma'lumotlariga ko'ra, "Big Bang" islohotlaridan so'ng yuzaga kelgan raqobat muhitida risklar va manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli ortganligi sababli bozorni tartibga solish va investorlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurati vujudga kelgan [20]. Bu holat London xalqaro moliya markazining rivojlanishi deregulatsiya va samarali nazorat mexanizmlarining uyg'unlashuvi asosida amalga oshirilganligini ko'rsatadi.

Keyingi muhim bosqich 2000-yilda "Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to'g'risida"gi Qonunning (Financial Services and Markets Act 2000 — FSMA 2000) qabul qilinishi bilan bog'liqdir [17]. "HM Treasury" (Buyuk Britaniya G'aznachiligi) va boshqa rasmiy manbalarga ko'ra, mazkur qonun Buyuk Britaniyada moliyaviy tartibga solishning zamonaviy modelini shakllantirgan. Natijada markazlashgan va aniq regulativ arxitektura vujudga kelib, London xalqaro investorlar uchun yuqori darajadagi huquqiy aniqlik va ishonchlilikni ta'minlovchi moliyaviy markazga aylangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan keyin London xalqaro moliya markazi rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi. Xususan, 2012-yilda qabul qilingan "Moliyaviy xizmatlar to'g'risida"gi Qonun (Financial Services Act) asosida Moliyaviy siyosat qo'mitasi (Financial Policy Committee — FPC) tashkil etildi [18]. Mazkur qo'mita Angliya banki tarkibida faoliyat yuritib, tizimli risklarni aniqlash, monitoring qilish va kamaytirish, makroprudensial siyosatni amalga oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash vazifalarini bajarishga kirishdi.

Bu davrda banklar va sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini nazorat qilish, ya'ni prudensial nazorat Angliya banki (Bank of England) tarkibidagi Prudensial tartibga solish organi (Prudential Regulation Authority — PRA) zimmasiga yuklatildi [10]. Moliyaviy bozorlar, moliyaviy institutlar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, bozor yaxlitligini ta'minlash hamda iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish vazifalari esa Moliyaviy xulq-atvorni nazorat qilish boshqarmasi (Financial Conduct Authority — FCA) zimmasiga yuklatildi [9]. Mazkur institutsional o'zgarishlar London xalqaro moliya markazining "chuqur bozor va kuchli nazorat" modelini yanada mustahkamladi.

London xalqaro moliya markazi rivojlanishining to'rtinchi bosqichi Brexit'dan keyingi moslashuv va transformatsiya davri bilan bog'liqdir. Xususan, 2023-yilda qabul qilingan "Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to'g'risida"gi Qonun (Financial Services and Markets Act 2023) saqlab qolingan Yevropa Ittifoqi huquqining moliyaviy xizmatlarga oid qismini bekor qilish hamda milliy regulativ tizimni qayta shakllantirish uchun huquqiy asos yaratdi [19].

Shuningdek, 2025-yilda qabul qilingan "Moliyaviy xizmatlar sohasining o'sishi va raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi" (Financial Services Growth and Competitiveness Strategy) Buyuk Britaniyaning mazkur yo'nalishdagi 10-yillik rivojlanish rejasini belgilab berdi. Mazkur strategiya London va Buyuk Britaniyani investitsiyalar, innovatsiyalar, fintech, kapital bozorlari hamda barqaror moliya (sustainable finance) sohalarida dunyoning eng jozibador moliyaviy markazlaridan biriga aylantirishni maqsad qilgan.

Londonning asosiy raqobat ustunliklari moliya bozorining chuqurligi, huquqiy ishonchlilik, xalqaro bank klasterining mavjudligi hamda moliyaviy xizmatlarning keng diversifikatsiyalashgan bazasi bilan izohlanadi. 2025-yilgi Global moliyaviy markazlar indeksi (Global Financial Centres Index — GFCI) natijalariga ko'ra, London dunyoda 2-o'rinni, G'arbiy Yevropada esa 1-o'rinni egallagan [16]. "City of London Corporation" tahlillariga ko'ra, London ketma-ket besh yil davomida eng raqobatbardosh global moliya markazlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, London 170 dan ortiq xorijiy bank va bank filiallarini o'zida jamlagan bo'lib, xalqaro bank faoliyati (cross-border banking) bo'yicha global yetakchilardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda London xalqaro moliya markazi global moliyaviy bozorlardagi o'zgaruvchan sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashib bormoqda. Fond bozorlarida listinglar uchun xalqaro raqobatning kuchayishi, yashash va operatsion xarajatlarning nisbatan yuqoriligi hamda Brexit'dan keyin moliyaviy faoliyatning ayrim

yo'nalishlarida hududiy diversifikatsiyaning kuchayishi London uchun yangi rivojlanish imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. "HM Treasury" tomonidan e'lon qilingan 2025-yilgi strategiyada raqobatchi moliyaviy markazlarning jadal rivojlanayotgani qayd etilgan bo'lsa-da, bu holat Londonning innovatsion salohiyatini yanada oshirish, moliyaviy xizmatlar sifatini takomillashtirish va xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun qo'shimcha rag'bat yaratmoqda [7]. Shu nuqtayi nazardan, mavjud tendensiyalar London xalqaro moliya markazining yangi o'sish nuqtalarini izlash, texnologik transformatsiyani jadallashtirish va global moliya tizimidagi yetakchi mavqeini yanada mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

London xalqaro moliya markazining asosiy rivojlanish imkoniyatlari moliyaviy texnologiyalar (FinTech), ochiq moliya (Open Finance), barqaror moliya, o'tish davrini moliyalashtirish (Transition Finance), sun'iy intellekt (Artificial Intelligence — AI) hamda kapital bozorlarini raqamlashtirish bilan bog'liq. 2025-yilgi hukumat strategiyasida Buyuk Britaniyani "eng texnologik ilg'or global moliya markazi"ga aylantirish ustuvor maqsad sifatida belgilangan.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

– Moliyaviy xulq-atvorni nazorat qilish boshqarmasi (FCA) hamda Prudensial tartibga solish organi (PRA) tomonidan tez o'sayotgan kompaniyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus "Scale-Up Unit" platformasini tashkil etish va yangi fintech kompaniyalarining regulyativ muhitga moslashuviga ko'maklashish;

– moliyaviy institutlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish va ulardan foydalanish ko'lamini kengaytirish;

– blokcheyn (blockchain) texnologiyalarini moliyaviy operatsiyalar va tranzaksiyalarda keng qo'llash;

– ulgurji moliya bozorlarini raqamlashtirish (wholesale market digitalisation), ya'ni banklararo operatsiyalar va kapital bozorlari infratuzilmasini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish.

London xalqaro moliya markazi uchun asosiy tashqi omillar sifatida Nyu-York, Singapur, Gonkong, Dubay va Abu-Dabi kabi yirik moliyaviy markazlar bilan kuchli raqobat, global geosiyosiy noaniqliklar, yuqori foiz stavkalari sharoitida kapital bozorlaridagi o'zgarishlar, shuningdek, texnologik va kiberxavfsizlik risklari e'tirof etilmoqda.

Makroprudensial siyosatni amalga oshiruvchi, tizimli risklarni aniqlovchi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi Angliya bankining Moliyaviy siyosat qo'mitasi (Financial Policy Committee — FPC) ham 2026-yil boshidagi hisobotlarida geosiyosiy shoklar, xususi kredit bozorlari, suveren qarzlarni hamda sun'iy intellekt bilan bog'liq moliyaviy barqarorlik xatarlarini alohida qayd etgan.

London xalqaro moliya markazi investorlar uchun bir necha muhim afzalliklarga ega. Birinchidan, u sud qarorlari asosida shakllangan pretsedent huquq tizimi (common law) orqali kuchli huquqiy himoyani ta'minlaydi. Ikkinchidan, tartibga solish tizimining aniqligi va barqarorligi investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Uchinchidan, global valyuta bozorlari, qarz instrumentlari, sug'urta xizmatlari, aktivlarni boshqarish va professional xizmatlarning bir hududda jamlangani Londonning jozibadorligini oshiradi.

Soliq siyosati nuqtayi nazaridan London "nol soliq hududi" hisoblanmaydi, biroq xalqaro investorlar uchun bir qator maqsadli soliq rejimlariga ega. Jumladan, Investitsiya menejerlari uchun soliq imtiyoz (Investment Manager Exemption) xorijiy investorlar tomonidan Buyuk Britaniyadagi investitsiya menejerlari orqali amalga oshirilgan ayrim investitsiya operatsiyalarini soliqqa tortishni cheklaydi [21].

Shuningdek, xalqaro investorlar uchun investitsiyalarni samarali strukturalash maqsadida "Qualifying Asset Holding Company" (QAHC) maxsus soliq rejimi joriy etilgan bo'lib, u investitsiya faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikki martalik soliqqa tortish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi [22].

Bundan tashqari, 2023-yilda ko'chmas mulk investitsiya trastlari rejimi (Real Estate Investment Trust — REIT) takomillashtirildi. Mazkur o'zgarishlar London xalqaro moliya markazining xalqaro raqobatbardoshligini yanada oshirishga qaratilgan [23].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, London xalqaro investorlar uchun yuqori darajadagi huquqiy ishonchlilik, rivojlangan infratuzilma va barqaror institutsional muhitni taqdim etuvchi yetakchi moliyaviy markazlardan biri hisoblanadi. Xususan, qonunchilik talablariga rioya etish, malakali mehnat resurslaridan foydalanish hamda zamonaviy ofis infratuzilmasiga ega bo'lish bilan bog'liq investitsiyalar moliyaviy xizmatlar sifatini va bozor ishonchligini yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, samarali va qat'iy tartibga solish tizimi investorlar manfaatlarini himoya qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda bozor ishtirokchilari uchun shaffof va ishonchli muhit yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli Londonning rivojlanish modeli past soliqlarga emas, balki yuqori ishonch, sifatli infratuzilma, kuchli huquqiy himoya va uzoq muddatli barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi.

So'nggi uch yil davomida Buyuk Britaniya, shu jumladan London, global moliya tizimidagi yetakchi mavqeini saqlab kelmoqda. Xalqaro hisob-kitoblar bankining (BIS) uch yillik tadqiqoti natijalariga ko'ra, Buyuk Britaniyaning global valyuta savdosidagi (FX turnover) ulushi 2022-yildagi 38,0 foizdan 2025-yilda 37,8 foizga pasaygan bo'lsa-da, mutlaq hajm 3,735 trln AQSH dollaridan 4,745 trln AQSH dollariga oshgan [15]. Bu Londonning global valyuta bozori markazi sifatidagi mavqei saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi.



Xalqaro bank faoliyati (cross-border banking) bo'yicha ham Londonning pozitsiyasi yuqori bo'lib qolmoqda. 2024–2025-yillar ikkinchi choragi ma'lumotlariga ko'ra, Buyuk Britaniya xalqaro bank kreditlari hajmi bo'yicha 14,6 foizlik ulush bilan dunyoda birinchi o'rinni egallagan. Londonda 170 dan ortiq xorijiy bank va bank filiallarining faoliyat yuritishi ushbu ustunlikning institutsional asosini tashkil etadi.

Kapital bozori sohasida London fond birjasi (London Stock Exchange — LSE) 2024-yilda 378 ta bitim orqali 25,3 mlrd funt sterling miqdorida aksiyadorlik kapitalini jalb qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan qariyb 35 foizga yuqori bo'lgan [12]. LSE aksiyadorlik kapitalini jalb qilish bo'yicha global top-10 talikdagi yagona Yevropa fond birjasi sifatida qayd etilgan. Bu London IPO bozorida mutlaq ustunlikka ega bo'lmasa-da, qo'shimcha kapital jalb qilish (follow-on offerings) segmentida o'zining kuchli mavqeini saqlab qolayotganini anglatadi.

Aktivlarni boshqarish sektori ham Londonning asosiy tayanch yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2023-yilda Buyuk Britaniyada boshqaruv ostidagi aktivlar hajmi 10,9 trln funt sterlingga yetib, oldingi yilga nisbatan 5,8 foizga oshgan. "TheCityUK" ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda moliyaviy va professional xizmatlar sohasida qariyb 2,5 mln kishi band bo'lgan [14]. 2024-yilda ushbu tarmoq tomonidan yaratilgan real qo'shilgan qiymat (Real GVA) 281 mlrd funt sterlingni tashkil etib, mamlakat umumiy GVA hajmining 12,2 foiziga teng bo'lgan [13]. Shuningdek, 2023-yilda mazkur sektor tomonidan 110,2 mlrd funt sterling miqdorida soliq tushumlari shakllantirilgan bo'lib, bu Buyuk Britaniya umumiy soliq tushumlarining 12,3 foiziga tengdir.

2025–2026-yillarda Global moliyaviy markazlar indeksi (GFCI) reytingiga ko'ra, London Nyu-Yorkdan keyingi ikkinchi o'rinni saqlab qolmoqda [16]. Bu holat Londonning xalqaro moliya tizimidagi ahamiyati saqlanib qolayotganini va global moliyaviy yetakchilik tobora ko'proq bir nechta yirik markazlar o'rtasida taqsimlanayotganini ko'rsatadi.

London xalqaro moliya markazining institutsional tuzilmasi ko'p bosqichli va o'zaro bog'langan regulyatorlar tizimidan iborat. HM Treasury davlatning fiskal siyosati, davlat qarzi va moliyaviy xizmatlar strategiyasini belgilovchi markaziy organ hisoblanadi. Angliya banki tarkibidagi Moliyaviy siyosat qo'mitasi (FPC) makroprudensial siyosatni amalga oshiradi va tizimli risklarni nazorat qiladi. Prudensial tartibga solish organi (PRA) banklar, sug'urta kompaniyalari va yirik investitsiya firmalarining moliyaviy barqarorligi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Hozirgi vaqtda PRA tomonidan qariyb 1 292 ta institut nazorat qilinmoqda [8].

Moliyaviy xulq-atvorni nazorat qilish boshqarmasi (FCA) esa moliyaviy bozorlar faoliyati, iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish va bozor yaxlitligini ta'minlash vazifalarini bajaradi. FCA tomonidan 42 mingdan ortiq biznes subyekting faoliyati nazorat qilinadi. To'lov tizimlarini tartibga soluvchi organ (Payment Systems Regulator — PSR) esa to'lov infratuzilmasida raqobat, innovatsiyalar va foydalanuvchilar manfaatlarini himoya qilishga mas'ul hisoblanadi [11].

Mazkur institutsional tizimning shakllanishiga 1986-yildagi bozor islohotlari, 2000-yilda qabul qilingan FSMA modeli, 2012-yildagi moliyaviy sektor islohotlari hamda Brexit'dan keyin 2023-yilda amalga oshirilgan huquqiy o'zgarishlar muhim ta'sir ko'rsatgan.

Brexit London xalqaro moliya markaziga murakkab va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatdi. Bir tomondan, Yevropa bozoriga erkin kirish huquqining qisqarishi va ayrim moliyaviy operatsiyalarning Frankfurt, Parij hamda Dublin kabi markazlarga ko'chishi kuzatildi. Boshqa tomondan, mustaqil regulyativ siyosat yuritish, fintech va raqamli moliyani tezroq rivojlantirish hamda global investorlar uchun yanada moslashuvchan sharoitlar yaratish imkoniyatlari kengaydi.

Shunday qilib, London xalqaro moliya markazining institutsional kuchi yagona markazlashgan organ faoliyatiga emas, balki vazifalari aniq taqsimlangan va o'zaro uyg'un faoliyat yurituvchi regulyatorlar tizimiga asoslanadi.

London xalqaro moliya markazining eng muhim xalqaro raqobat ustunliklaridan biri tarmoq samarasi (network effects) hisoblanadi. Mazkur hodisa iqtisodiy tizim ishtirokchilari soni ortishi bilan har bir ishtirokchi uchun yaratiladigan qiymatning ham oshib borishini anglatadi. London misolida ko'plab banklar, investorlar, fondlar va professional xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning bir hududda jamlangani o'zaro sinerjiyani kuchaytirib, markazning global jozibadorligini yanada oshirmoqda.

London xalqaro moliya markazining ikkinchi raqobat ustunligi klaster samarasi (cluster effect) hisoblanadi. Klaster samarasi o'zaro bog'liq korxonalar, moliyaviy institutlar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning geografik jihatdan bir hududda jamlanishi natijasida yuzaga keladigan sinergetik iqtisodiy samarani anglatadi. Bunday muhitda resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatning jadallashuvi, bilim va tajriba almashinuvi, biznes aloqalarning kengayishi hamda tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi kuzatiladi. Natijada klaster ishtirokchilarining umumiy raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligi ortadi.

London xalqaro moliya markazining uchinchi muhim raqobat ustunligi xalqaro ochiqlik va moslashuvchanlikdir. Buyuk Britaniya G'aznachiligi (HM Treasury) tomonidan ishlab chiqilgan 2025-yilgi strategiyada mamlakatni investitsiyalarni boshqarish, sug'urta va qayta sug'urta, barqaror moliya (sustainable finance) hamda moliyaviy texnologiyalar (fintech) sohalarida dunyoning eng jozibador moliyaviy markazlaridan

biriga aylantirish maqsadi belgilangan. Bu Londonning tarixiy institutsional afzalliklarini zamonaviy texnologik imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirishga intilayotganligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, London xalqaro moliya markazi "past soliqli maxsus hudud" modeliga emas, balki "yuqori ishonch, chuqur moliyaviy bozorlar, kuchli institutlar va global tarmoq samarasi" modeliga asoslangan holda rivojlangan. Markazning shakllanish tarixi XIII asrga borib taqaladi va uning bugungi mavqei asrlar davomida shakllangan institutsional, huquqiy hamda iqtisodiy omillar bilan izohlanadi. London xalqaro moliya markazi rivojlanishining zamonaviy bosqichi 1986-yildagi bozor liberallasuvi islohotlari, 2000-yilda moliyaviy bozorlarni tartibga solishning yangi huquqiy modelini joriy etish, 2012-yildagi moliyaviy inqirozdan keyingi nazorat islohotlari hamda 2023-yildan boshlangan Brexit'dan keyingi moslashuv jarayonlari bilan tavsiflanadi.

Tahlillar natijalariga ko'ra, so'nggi uch yil davomida London jahon valyuta bozori (FX), xalqaro bank faoliyati (cross-border banking), aktivlarni boshqarish va kapital bozorlari sohalarida global yetakchi markazlardan biri sifatidagi mavqegini mustahkam saqlab kelmoqda. Global moliya markazlari o'rtasidagi raqobatning faollashuvi esa London uchun yangi rivojlanish imkoniyatlarini yaratib, innovatsion taraqqiyot sur'atlarini yanada jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Nyu-York, Singapur, Dubay va Gonkong kabi yirik moliyaviy markazlarning jadal rivojlanishi Londonda moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, investitsion jozibadorlikni oshirish, institutsional samaradorlikni takomillashtirish hamda global moliya bozorida yetakchilik pozitsiyalarini yanada mustahkamlash uchun qo'shimcha rag'bat vazifasini bajarmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, Toshkent xalqaro moliya markazini rivojlantirishda investorlar uchun yuqori darajadagi huquqiy ishonch va institutsional barqarorlikni ta'minlash, moliyaviy bozorlarni chuqurlashtirish va kapital bozori infratuzilmasini rivojlantirish, fintech, raqamli moliya hamda sun'iy intellekt asosidagi moliyaviy xizmatlarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro banklar, investitsiya fondlari va professional xizmatlar klasterlarini shakllantirish, shuningdek, moliyaviy nazorat va investorlarni himoya qilish mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi Toshkent xalqaro moliya markazining mintaqaviy va xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish hamda moliyaviy sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi PF-48-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8103316>
2. Vo D.H., Nguyen N.T. Determinants of a Global Financial Center: An Exploratory Analysis // *Borsa Istanbul Review*. – 2021. – P. 186–196. <https://doi.org/10.1016/j.bir.2020.10.002>
3. Kim D.-H., Lin S.-C., Liu P. Financial Openness and Wealth Inequality: The Moderating Role of Financial Development // *Economic Modelling*. – 2026. – Article 107557. <https://doi.org/10.1016/j.econmod.2026.107557>
4. Vo X.V., Daly K.J. The Determinants of International Financial Integration // *Global Finance Journal*. – 2007. – P. 228–250. <https://doi.org/10.1016/j.gfj.2006.04.007>
5. Degl'Innocenti M., Matousek R., Sevic Z., Tzeremes N.G. Bank Efficiency and Financial Centres: Does Geographical Location Matter? // *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*. – 2017. – P. 188–198. <https://doi.org/10.1016/j.intfin.2016.10.002>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. Moliya va raqamli texnologiyalar sohasidagi yangi tashabbuslar taqdimot qilindi. – 2026-yil 25-mart. <https://president.uz/oz/lists/view/9048>
7. HM Treasury. Financial Services Growth and Competitiveness Strategy. – London: HM Treasury, 2025. <https://www.gov.uk/government/publications/financial-services-growth-and-competitiveness-strategy>
8. Bank of England. Financial Stability Reports, Prudential Regulation and Financial Policy Committee Publications. <https://www.bankofengland.co.uk>
9. Financial Conduct Authority (FCA). About the FCA and Regulatory Framework. <https://www.fca.org.uk>
10. Prudential Regulation Authority (PRA). The Prudential Regulation Authority: Role and Responsibilities. – Bank of England. <https://www.bankofengland.co.uk/prudential-regulation>
11. Payment Systems Regulator (PSR). Annual Reports and Regulatory Publications. <https://www.psr.org.uk>
12. London Stock Exchange Group (LSEG). London Stock Exchange Annual Reports and Capital Markets Statistics. <https://www.londonstockexchange.com>
13. TheCityUK. Key Facts About the UK as an International Financial Centre 2024. – London: TheCityUK, 2024. <https://www.thecityuk.com/research/key-facts-about-the-uk-as-an-international-financial-centre-2024>
14. Office for National Statistics (ONS). Financial and Related Professional Services Statistics. <https://www.ons.gov.uk>
15. Bank for International Settlements (BIS). Triennial Central Bank Survey of Foreign Exchange and Over-the-Counter Derivatives Markets. – Basel: BIS, 2025. <https://www.bis.org/statistics/rpfx25.htm>



16. Long Finance. Global Financial Centres Index (GFCI) Reports. – 2025–2026. <https://www.longfinance.net/programmes/financial-centre-futures/global-financial-centres-index>
17. UK Parliament. Financial Services and Markets Act 2000. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2000/8/contents>
18. UK Parliament. Financial Services Act 2012. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2012/21/contents>
19. UK Parliament. Financial Services and Markets Act 2023. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2023/29/contents>
20. Bank of England. City Regulation After Big Bang: Governor’s Speech to the American Chamber of Commerce // Bank of England Quarterly Bulletin. – 1986. <https://www.bankofengland.co.uk/quarterly-bulletin/1986/q1/city-regulation-after-big-bang-governors-speech-to-the-american-chamber-of-commerce-uk>
21. HM Revenue & Customs (HMRC). Investment Manager Exemption Guidance. <https://www.gov.uk/hmrc-internal-manuals/investment-manager-exemption-manual>
22. HM Treasury. Qualifying Asset Holding Companies: Tax Regime. <https://www.gov.uk/government/publications/qualifying-asset-holding-companies>
23. HM Revenue & Customs (HMRC). Real Estate Investment Trusts (REITs): Guidance. <https://www.gov.uk/guidance/real-estate-investment-trusts-reits>

**muhandislik**

**& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)